

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**XUDAYKULOV AMIR MELIKULOVICH**

**NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
Economics Sciences**

**Xudaykulov Amir Melikulovich**

Nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish ..... 3

**Худайкулов Амир Меликуович**

Совершенствование учета и аудита нематериальных активов ..... 27

**Khudaykulov Amir Melikulovich**

Improving the accounting and auditing of intangible assets ..... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 57

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01**  
**RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**XUDAYKULOV AMIR MELIKULOVICH**

**NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.PHD/Iqt1168 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.tseu.uz) va «Ziyoune» axborot-tilim portalida (www.ziyoune.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Ilxamov Shavkat Islamovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Rizayev Nurbek Kadirovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor  Mamatkulov Murodjon Shukurovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Toshkent moliya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSe.03/10.12.2019.L16.01-raqamli ilmiy Kengashning 2023-yil « 25 » 04 kuni soat 19:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (71) 239-28-72; faks: (71) 239-43-51; e-mail: info@tseu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1287-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (71) 239-28-72; faks: (71) 239-43-51; e-mail: info@tseu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 19 » 04 kuni tarqatildi.  
(2023-yil « 02 » 04 dagi 31-raqamli reyestr beyonnomasi).



  
M. P. Eshov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash  
raisi, i.f.d., professor

  
U. V. Gafurov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash  
kotibi, i.f.d., professor

S. K. Xudoyqulov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor



## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda bugungi kunda xo‘jalik yurituvchi subyektlar balansiga kirim qilinadigan nomoddiy aktivlarning qiymati va undan foydalanish davrini to‘g‘ri aniqlash, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari(MHXS)ga muvofiq transformatsiyalash jarayonini tashkil etish hamda milliy va xalqaro tajribalarni tahlil qilish asosida hisob obyektlarini to‘g‘ri tasniflash va tasniflash amallari ko‘pgina hisob vazifalarni hal etishni taqozo etmoqda. Bunda «ta‘sischilar hisob siyosati va xalqaro standartlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlab, xo‘jalik yurituvchi subyekt hisob siyosatini MHXSga muvofiq o‘zgartirish talab etiladi»<sup>1</sup>. Auditorlik tashkilotlari uchun bugungi kunda nomoddiy aktivlar bo‘yicha operatsiyalarning ko‘pgina xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida kam uchrashi moliyaviy hisobotdagi xatolik ulushi yuqori bo‘lishi riskini keltirib chiqarmoqda. Bu esa nomoddiy aktivlar hisob obyektlari bo‘yicha auditning xalqaro standartlari (AXS)ga muvofiq auditorlik ishchi taomillarini ishlab chiqishni talab etmoqda.

Jahonda moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda xo‘jalik aktivlari, jumladan, nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirishga oid ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. «Nomoddiy aktivlar» nomli 38-sonli MHXSning asosini tashkil etuvchi ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI) bo‘yicha xarajatlarni kapitallashtiriladigan va kapitallashtirilmaydigan xarajatlarga aniq ravishda ajratish, ichki yaratilgan nomoddiy aktivlar bo‘yicha maxsus qoidalarni qayta ko‘rib chiqish va to‘g‘irlash, nomoddiy aktivlarning bozor qiymatini aniqlash va ularga amortizatsiya hisoblashning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, ichki yaratilgan gudvillni hisobga olishning muammoviy jihatlari, nomoddiy aktivlarni hisobga olishda birlamchi hisob hujjatlarini takomillashtirish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda nomoddiy aktivlar hisobi va auditini xalqaro standartlarga muvofiq amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, «O‘zbekistonda yirik soliq to‘lovchilarning moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobot topshirishi majburiy etib belgilanganligi bois auditorlik tekshiruvlari ham mazkur xo‘jalik yurituvchi subyektlarda auditning xalqaro standartlari asosida o‘tkazilishi»<sup>2</sup> belgilandi. Buning natijasi sifatida buxgalteriya hisobining milliy standartlari(BHMS)ni MHXSga muvofiq uyg‘unlashtirish vazifasi belgilab berildi. Shuningdek, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligida MHXS fondi bilan hamkorlikda kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy hisobotning milliy standartlarini ishlab chiqish va amalga kiritish bo‘yicha qator vazifalar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga asosan nomoddiy aktivlarni baholash usullari, tovar belgisi, franchayzlar, litsenziyalar hamda royaltlarni hisobga olishning o‘ziga xos jihatlari, intellektual mulk obyektlarini hisobga olish va auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish bo‘yicha ilmiy-

---

<sup>1</sup>Кесян С.В. и другие. Трансформация бухгалтерской отчетности в соответствии с требованиями МСФО. Вестник Академии знаний №49 (2), 2022 г. <https://cyberleninka.ru/article/n/transformatsiya-buhgalterskoy-otchetnosti-v-sootvetstvii-s-trebovaniyami-msfo-1>

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori. Toshkent sh., 2020-yil 24-fevral, PQ-4611-son

nazariy qarashlarni qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi farmoni, 2018-yil 19-sentabrdagi PQ-3946-son «O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-maydagi 302-son «Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatni tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** So'nggi yillarda nomoddiy aktivlar hisobi va auditining tashkiliy-uslubiy masalalari xorijiy va MDH mamlakatlarining iqtisodchi olimlaridan N.M.Balakireva, T.G.Belozeroва, A.V.Zayseva, K.Paulets, N.N.Potashkova, V.S.Rjanitsina, D.E.Semenov, N.S.Tonkoshkurova<sup>3</sup> va boshqalarning ilmiy ishlarida uslubiy va nazariy jihatdan tadqiq qilingan.

Bevosita nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish masalalari mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan N.K.Rizayev, M.Po'latov, Sh.I.Ilxamov, I.N.Ismanov, I.Davletov va O.T.Nurmatovning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan<sup>4</sup>.

---

<sup>3</sup>Балакирева Н.М. Учет и аудит нематериальных активов. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Москва, 2005 г. 28 стр.; Белозерова Т.Г. Развитие методики бухгалтерского учета нематериальных активов. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Ростов-на-Дону, 2010 г. 27 стр.; Bucher Ch.B. Bilanzielle Behandlung selbst erstellter immaterieller Vermögenswerte in den IAS/IFRS. Autorreferat der Dissertation zur Erlangung des akademischen Grades der Doktorin, der Sozial- und Wirtschaftswissenschaften. Klagenfurt (Deutschland), März 2018; Зайцева А.В. Бухгалтерский учет затрат на создание и использование объектов нематериальных активов в организациях средств массовой информации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Казань, 2003 г. 24 стр.; Поташкова Н.Н. Конвергенция российского бухгалтерского учета внеоборотных активов с международными стандартами финансовой отчетности. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Саратов, 2007 г. 17 стр.; Ржаницына В.С. Бухгалтерский учет нематериальных активов. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Санкт-Петербург, 2006 г. – 24 стр.; Семенов Д.Е. Учетно-аналитическое отражение внеоборотных активов российских предприятий в соответствии с международными стандартами. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Самара, 2008 г. – 20 стр.; Тонкошкурова Н.С. Бухгалтерский учет интеллектуальных активов. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Санкт-Петербург, 2011 г. – 25 стр.

<sup>4</sup> Ризаев Н.К. Номоддий активларнинг бухгалтерия ҳисоби ва молиявий таҳлилини такомиллаштириш, и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши. – Тошкент, 2004 й.; Ризаев Н.К. Интеллектуал мулк объектлари ҳисоби ва таҳлилини ташкил этиш методологияси, и.ф.д. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2019 й.; Пулатов М.Э. Номоддий активлар ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш, и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2006 й.; Пулатов М.Э. Интеллектуал капитал ҳисоби ва аудити методологиясини такомиллаштириш, И.ф.д. (DSc)

Bundan tashqari mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan N.B.Abdusalomova, Sh.I.Ilxamov, A.A.Karimov, S.U.Mehmonov, N.Sh.Xajimuratov, B.K.Xamdamov, Sh.T.Ergasheva va boshqalarning<sup>5</sup> tadqiqot ishlarida nomoddiy aktivlar hisobi va auditining nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlari o'rganilgan.

Tadqiqot olib borish jarayonida oxirgi yillarda nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish masalalari bo'yicha mamlakatimiz, MDH va xorijiy davlatlari olimlari tomonidan 20 dan ortiq ilmiy izlanishlar olib borilganiga amin bo'lindi.

Biroq yuqorida qayd etilgan iqtisodchi olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida nomoddiy aktivlarga berilgan ta'rifni aniqlashtirish, shuningdek, nomoddiy aktivlar bo'yicha MHXSlarini qo'llashning moliyaviy samaradorligi o'rganilmagan. Jumladan, MHXS talablari asosida nomoddiy aktivlarni hisobga olishda ilgari korxonalar balansida nomoddiy aktivlar sifatida e'tirof etilmagan aktivlar tadbirkorlik subyekti MHXS talablari asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlashga o'tganda ular nomoddiy aktivlar sifatida qayta tasniflangach, investitsion chegirmaga ega bo'lishi normativ-huquqiy hujjatlar asosida o'rganilmagan.

Bundan tashqari, nomoddiy aktivlarni MHXS talablari asosida transformatsiyalash jarayoni ancha yillardan buyon MHXSga o'tgan biror davlat va O'zbekiston Respublikasi misolida o'rganilgan holda farqlar aniqlab chiqilmagan. Shu bilan birga xorijiy adabiyotlarda keltirilgan nomoddiy aktivlar bo'yicha muayyan bir vaziyatdagi operatsiyalar bo'yicha berilgan buxgalteriya o'tkazmalaridagi qoldiqlarni oxirigacha chiqarmaslik va tushunarsiz holatlar alohida o'rganilmagan. Shuningdek, bugungi kunda auditorlik faoliyatining milliy standartlari bekor qilinganligi bois<sup>6</sup> nomoddiy aktivlar bo'yicha auditning xalqaro standartlari asosida va O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksidan chetga chiqmagan holda takomillashgan audit rejasi va dasturi, nomoddiy aktivlarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda muhimlik darajasi va auditorlik riski muayyan

---

илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2018 й.; Илхамов Ш.И. Инвестиция фаолиятида бухгалтерия ҳисоби ва аудит, и.ф.н. илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Т.: БМА, 2005. – 24 б.; Исманов И.Н. Узоқ муддатли активларнинг бухгалтерия ҳисоби ва аудити методологиясини такомиллаштириш масалалари, и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2009 й.; Давлетов И. Аграр соҳада интеллектуал мулк объектлари ҳисоби ва аудити масалалари, иқтисодийёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2018 й.; Нурматов О.Т. Иқтисодийётни модернизациялаш жараёнларида номоддий активлар ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш масалалари, Иқтисодийёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2019 й.

<sup>5</sup>Abdusalomova N.B. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – Т.: «Innovatsion rivojlanish» nashriyot-matbaa uyi, 2021. 966 b. 560-596-betlar; Ilxamov Sh.I. Auditorlik tekshiruvi jarayonida ichki nazorat tizimini baholash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati; Karimov A.A., Kurbanbayev J.E, Jumanazarov S.A. Moliyaviy hisob va hisobot. Darslik. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2019. 400 b. 240-262-betlar; Mehmonov S.U., Ubaydullayev D.Y. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. Darslik. – Т.: «Sano-standart» nashriyoti, 2013 y. -456 b. 170-185-betlar; Xajimuratov N.Sh. Moliyaviy hisobot auditini metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2021-y. 30 b; Hamdamov B.K., Ilxamov Sh.I., Karimov N.X. Amaliy audit. Darslik. ООО «Lesson Press» nashriyoti. 2021. -300 b. 77-87-betlar; Эргашева Ш.Т. Международные стандарты финансовой отчетности. Учебник. – Т.: «Инновацион ривожланиш» нашриёт-матбаа уйи 2021. 424 с. 170-188-стр.; Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. Oquv qollanma. – Т.: TDIU, 2019. – 227 b. 88-141-betlar.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunining 9-"Auditorlik faoliyati standartlari" moddasiga asosan. Toshkent sh., 2021-yil 25-fevral, O'RQ-677-son.

vaziyatlar asosida o'rganilib, natijalarni chiqarish mexanizmi ishlab chiqilmagan. Yuqorida keltirilgan masalalar O'zbekistonda mazkur mavzuni chuqurroq o'rganish va tadqiq etish zaruratini keltirib chiqardi va bu holat mavzuning tanlanishiga sabab bo'ldi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-6-sonli «O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistika sohalari taraqqiyotining konseptual yo'nalishi» mavzusidagi ilmiy tadqiqot doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** xo'jalik yurituvchi subyektlarda nomoddiy aktivlar hisobi va auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

nomoddiy aktivlarga o'ziga xos yangi ta'rifni ishlab chiqish, ularni iqtisodiy tasniflash hamda nomoddiy aktivlardan xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatida foydalanishning ahamiyatini nazariy jihatdan o'rganish;

nomoddiy aktivlar hisobi va auditini tashkil etishni ularning normativ-huquqiy asoslari negizida o'rganish, tadqiq etish va ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish;

nomoddiy aktivlar hisobini MHXS talablari asosida transformatsiyalash jarayonini tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hamda MHXSga o'tishning moliyaviy samaradorligini asoslash;

nomoddiy aktivlar auditini xalqaro standartlar asosida tashkil etishning normativ-huquqiy asoslarini o'rganib, audit taomillarini ishlab chiqish;

nomoddiy aktivlar auditining rejasi va dasturini auditning xalqaro standartlari asosida tuzish, muhimlik darajasi va auditorlik riskini aniqlash asosida takomillashtirish masalalarini alohida vaziyatlar asosida ma'lum bir mexanizmga birlashtirish va xolisona natijalarni chiqarish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekiston Respublikasi «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ va buxgalteriya hisobi hamda auditorlik faoliyatini muvofiqlashtirib boruvchi jamoat tashkilotlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida ikkiyoqlama yozuv va baholash, balans va hisobot, taqqoslash va tasniflash, qayta tasniflash, induksiya va deduksiya, analiz va sintez hamda iqtisodiy statistik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

moliyaviy hisobot shaklini MHXSlariga moslashtirish uchun buxgalteriya hisobida yangi 0440-«Foydalanish huquqi bo'yicha nomoddiy aktivlar», 0540-«Foydalanish huquqi bo'yicha nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi», 0460-«Uzoq muddatga ijaraga olish huquqi», 0490-«Nomoddiy aktivlarning qadrsizlanishi bo'yicha rezervlar» nomli tahliliy schyotlarni kiritish orqali schyotlar qoldiqlarini hisob obyektlari bo'yicha to'g'ri taqsimlash hamda mazmun va shaklning mos kelishini ta'minlash taklifi asoslangan;

nomoddiy aktivlar hisobini 7-sonli «Nomoddiy aktivlar» nomli buxgalteriya hisobining milliy standartidan xalqaro standartlarga transformatsiya qilishda 38-son MHXSga asosan tasniflash, qayta tasniflash mexanizmi asosida xalqaro moliyaviy hisobot elementlarini to'g'ri ifodalash, MHXSga o'tishning moliyaviy samaradorligini belgilash va foyda solig'i summasining avtomatlashtirilgan billing tizimi hamda boshqa milliy avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minotlar boshlang'ich qiymatini 20 foizi darajasida kamaytirish taklifi asoslangan;

nomoddiy aktivlar auditini o'tkazishda «Auditning umumiy rejasi» va «Auditning ishchi dasturi» namunaviy shakllarini takomillashgan auditning xalqaro standartlari asosida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi talablariga moslashtirgan holda auditorlik ishchi taomillarni mukammal ishlab chiqish, dalillar ishonchligini ta'minlash hamda auditorlik tekshiruvda sarflanuvchi ish soatlarini tejash taklif etilgan;

nomoddiy aktivlar auditi jarayonida muhimlikni belgilash va auditorlik riskini aniqlash bo'yicha nomoddiy aktivlarni iqtisodiy jihatdan tasniflash, ularning kirimi va chiqimi hisobi, ularga amortizatsiya hisoblash hamda qayta baholashga qaratilgan auditorlik taomillarini qo'llash orqali auditorlik risklarni kamaytirib borish taklifi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

nomoddiy aktivlar bo'yicha mavjud ta'riflardan farqli ravishda mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

olingan tadqiqot natijalaridan xo'jalik yurituvchi subyektlarning nomoddiy aktivlar bo'yicha hisob siyosati elementlarini ishlab chiqishda foydalanilish mumkinligi asoslangan;

nomoddiy aktivlar auditi bo'yicha audit strategiyasi va unga muvofiq audit ishchi taomillari ishlab chiqilgan va asoslangan;

mijoz-korxonada nomoddiy aktivlar auditini o'tkazishda buxgalteriya hisobini tashkil etish va ichki nazorat tizimini o'rganish bo'yicha test savolnomalari ishlab chiqilgan va asoslangan.

tadqiqot natijalari O'zbekistonda MHXSga muvofiq hisobot yurituvchi va MHXSga endi o'tayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda nomoddiy aktivlarni qayta tasniflash va transformatsiyalash jarayonlarini tashkil etishda foydalanilish mumkinligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo'llanilgan fundamental-nazariy yondashuvlar, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanilganligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligiga o'rganish uchun qabul qilinganlik xati, O'zbekiston Respublikasi «Hududiy elektr tarmoqlari» aksiyadorlik jamiyati «Elektr energiyasini hisobga olishni avtomatlashtirish markazi» filiali hisob siyosati va moliyaviy hisobotlariga asoslanganligi bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi tomonidan qabul qilinib, O'zbekistonda nomoddiy aktivlar hisobi va auditini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirishga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflardan buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha

darsliklarda hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarda foydalanish, xo'jalik yurituvchi subyektlarda nomoddiy aktivlarni tan olish, baholash va uning hisobini yuritish hamda auditni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiyalardan xo'jalik yurituvchi subyektlarda nomoddiy aktivlarni MHXS asosida hisobga olish va auditdan o'tkazish, nomoddiy aktivlarni haqqoniy qiymatida aks ettirish, nomoddiy aktivlar to'g'risidagi axborotdan foydalanuvchilarning ehtiyojlariga mos ma'lumotlarni tayyorlash mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy etilishi.** Nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar hamda amaliy tavsiyalar asosida:

moliyaviy hisobot shaklini MHXSlariga moslashtirish uchun buxgalteriya hisobida yangi 0440-«Foydalanish huquqi bo'yicha nomoddiy aktivlar», 0540-«Foydalanish huquqi bo'yicha nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi», 0460-«Uzoq muddatga ijaraga olish huquqi», 0490-«Nomoddiy aktivlarning qadrsizlanishi bo'yicha rezervlar» nomli tahliliy schyotlarni kiritish orqali schyotlar qoldiqlarini hisob obyektlari bo'yicha to'g'ri taqsimlash hamda mazmun va shaklning mos kelishini ta'minlash taklifidan O'zbekiston Respublikasi Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi tomonidan nomoddiy aktivlar buxgalteri hisobi va auditni uslubiyotini takomillashtirishda foydalanilgan (Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasining 2022-yil 28-noyabrdagi 72/MM-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida nomoddiy aktivlar hisobini xalqaro amaliyot asosida, shuningdek, korxonalar hisob siyosatini amalga kiritish asosida moliyaviy va boshqaruv hisobini yuritish, har bir sintetik va analitik schyotlar qoldiqlarini hisob obyektlari bo'yicha to'g'ri taqsimlash hamda mazmun va shaklning mos kelishiga erishilgan;

nomoddiy aktivlar hisobini 7-sonli «Nomoddiy aktivlar» nomli buxgalteriya hisobining milliy standartidan xalqaro standartlarga transformatsiya qilishda 38-sonli MHXSga asosan tasniflash, qayta tasniflash mexanizmi asosida xalqaro moliyaviy hisobot elementlarini to'g'ri ifodalash, MHXSga o'tishning moliyaviy samaradorligini belgilash va foyda solig'i summasining avtomatlashtirilgan billing tizimi hamda boshqa milliy avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minotlar boshlang'ich qiymatini 20 foizi darajasida kamaytirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ tomonidan nomoddiy aktivlar buxgalteri hisobi va auditni uslubiyotini takomillashtirishda foydalanilgan (Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasining 2022-yil 28-noyabrdagi 72/MM-sonli, «Hududiy elektr tarmoqlari» AJning 2022-yil 28-sentabrdagi IAS-3P-12-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatida milliy standart bo'yicha moliyaviy hisobotlarda nomoddiy aktivlarni xalqaro standartlarga muvofiq tasniflash va qayta tadniflashda vujudga kelgan noaniqliklarga barham berish, O'zbekistonda nomoddiy aktivlar bo'yicha milliy buxgalteriya hisobida xalqaro moliyaviy hisobot

elementlarini to'g'ri ifodalash, MHXSga o'tishning moliyaviy samaradorligini belgilash va hisob hamda hisobot ma'lumotlarining shaffof bo'lishiga erishilgan;

nomoddiy aktivlar auditini o'tkazishda «Auditning umumiy rejasi» va «Auditning ishchi dasturi» namunaviy shakllarini takomillashgan auditning xalqaro standartlari asosida, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi talablariga moslashtirgan holda auditorlik ishchi taomillarni mukammal ishlab chiqish, dalillar ishonchligini ta'minlash hamda auditorlik tekshiruvda sarflanuvchi ish soatlarini tejash taklifidan O'zbekiston Respublikasi Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi tomonidan nomoddiy aktivlar buxgalteri hisobi va audit uslubiyotini takomillashtirishda foydalanilgan (Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasining 2022-yil 28-noyabrdagi 72/MM-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida nomoddiy aktivlar auditini rejalashtirish jarayonining Soliq kodeksi talablariga moslashtirilishi va ishchi taomillarning mukammal ishlab chiqilishi va dalillar ishonchliligi ortishi, auditorlik tekshiruvda sarflanadigan ish soatlarining tejalishi hamda xalqaro audit standartlariga amal qilishga erishilgan;

nomoddiy aktivlar audit jarayonida muhimlikni belgilash va auditorlik riskini aniqlash bo'yicha nomoddiy aktivlarni iqtisodiy jihatdan tasniflash, ularning kirimi va chiqimi hisobi, ularga amortizatsiya hisoblash hamda qayta baholashga qaratilgan auditorlik taomillarini qo'llash orqali auditorlik risklarini kamaytirib borish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi tomonidan nomoddiy aktivlar buxgalteri hisobi va audit uslubiyotini takomillashtirishda foydalanilgan (Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasining 2022-yil 28-noyabrdagi 72/MM-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida auditorlar ish vaqtining tejalishi, audit sifatining yaxshilanishi va nomoddiy aktivlar auditini xalqaro audit standartlari asosida tashkil etish va risklarni kamaytirib borish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 13 ta respublika va 9 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, Scopus bazasida indeksatsiyalanuvchi jurnallarda 1 ta maqola, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, shundan 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 131 betni, ilovalar hajmi 61 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi va dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obykti, predmeti va usullariga tavsif berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari

yoritilgan, shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va amaliyotga joriy qilinishi izohlab berilgan, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi hamda dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Nomoddiy aktivlar hisobi va auditining nazariy va uslubiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobi nomoddiy aktivlarni iqtisodiy jihatdan tasniflash natijalarini yoritib berishga qaratilgan bo'lib, unda nomoddiy aktivlar, ularning mohiyati va korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatida ulardan foydalanish ahamiyati, nomoddiy aktivlarni hisobi va auditini tashkil etishning normativ-huquqiy asoslari, mazkur aktivlarni hisobga olishning respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni singari masalalar o'z yechimini topgan.

Bugungi kunda nomoddiy aktivlar hisobi va auditini o'tkazishning ahamiyati va dolzarbligini har bir korxonada uning qiymati qanchaligi va to'g'ri baholanayotganligi, mahsulot tannarxi yoki davr xarajatlariga to'g'ri kiritilayotganligi, amortizatsiya qanday hisoblanayotganligi bilan hamda mutlaq foydalanish huquqiga taalluqli nomoddiy aktivlar va vaqtinchalik foydalanish huquqi bo'yicha olingan nomoddiy aktivlarni hisobda to'g'ri aks ettirish lozimligi bilan ifodalash mumkin.

Nomoddiy aktivlar deganda, ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish yoki sotish jarayonida uzoq muddat (1 yildan ortiq muddat) foydalanilib o'z qiymatini asta-sekinlik bilan mahsulot, ish va xizmatlar tannarxi yoki davr xarajatlariga o'tkazib boradigan, lekin moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan mol-mulk obyektlari tushuniladi<sup>7</sup> (dissertatsiya ishining 1-ilovasida nomoddiy aktivlarga ta'rif berish bo'yicha dunyo ilm-fanida erishilgan natijalar hamda olimlarning fikrlari va ularga nisbatan tadqiqotchi yondashuvi keltirib o'tilgan).

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 312-moddasiga muvofiq, agar soliq to'lovchi ilmiy tadqiqotlar va (yoki) tajriba-konstruktorlik ishlanmalari yuzasidan amalga oshirilgan xarajatlar natijasida intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan **mutlaq huquqlarni olsa, mazkur huquqlar nomoddiy aktivlar deb e'tirof etiladi**. Bunday holda ko'rsatilgan xarajatlar Soliq kodeksining 307-moddasida<sup>8</sup> (Nomoddiy aktivlarni amortizatsiya qilish xarajatlari) nazarda tutilgan tartibda chegirib tashlanadi. Nomoddiy aktivlar korxonalar tomonidan ularning moliya-xo'jalik faoliyatida foydalaniladigan har qanday mol-mulk singari moddiy ko'rinishga ega bo'lmasa-da, odatda cheklangan xizmat qilish muddatiga ega.

O'zbekiston Respublikasida nomoddiy aktivlarning yaratilishiga to'g'ridan-to'g'ri taalluqli bo'lgan va uning asosini tashkil etuvchi ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlarning mamlakat YaIMga nisbatan ulushi bir foizni ham tashkil etmaydi (ma'lumot uchun: O'zbekistonda 2021-yilda YaIM hajmi 734,6 trillion so'mni tashkil etdi va o'sish 7,4 foiz bo'ldi. 2020-yil bu ko'rsatkich 580,2 trillion so'mni tashkil qilgan edi<sup>9</sup>). Aniqroq aytilsa, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarining YaIMdagi ulushi 2000-yilda 0,36 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib, bu ko'rsatkich 0,13 foizni tashkil etgan, ya'ni 2000-yilga nisbatan 0,23 foizga kamaygan (1-rasm).

<sup>7</sup>Mazkur ta'rif tadqiqotchining yondashuvi asosida berilgan.

<sup>8</sup>O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahriri). Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son; 27.07.2022 y., 03/22/785/0679-son

<sup>9</sup><https://daryo.uz/k/2022/01/27/ozbekistonda-yalpi-ichki-mahsulot-hajmi-2021-yilda-74-foizga-osdi/?id=1091955>



**1-rasm. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlar  
YaIM ga nisbatan foiz hisobida\*<sup>10</sup>**

*\*Alohida yillar bo'yicha ma'lumotlar qayta hisoblab chiqilgan.*

Ammo O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 83-son qarori bilan «2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar»<sup>11</sup> belgilab olindi. Unda jami 17 ta asosiy maqsad belgilangan bo'lib, shundan 9-maqsad – «Barqaror infratuzilmani yaratish, umumqamrovli va barqaror sanoatlashuv va innovatsiyalarga ko'maklashish» ga qaratilgan. Undagi 9.5-vazifaga muvofiq, iqtisodiyot tarmoqlarining texnologik salohiyatini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni, jumladan, innovatsion faoliyat uchun qulay shart-sharoit yaratish va ilmiy tadqiqot hamda konstruktorlik sohasidagi xodimlar sonini 2030-yilgacha 2 baravariga oshirish orqali jonlantirish bo'yicha aniq maqsad va vazifalar oldindan belgilab olingan hamda ko'rsatkichlarni to'plash bo'yicha vazifalarni Davlat statistika ishlari dasturiga kiritib borish, ko'rsatkichlarni doimiy asosda to'plash va MBRM veb-portalida ([www.nsdg.stat.uz](http://www.nsdg.stat.uz)) e'lon qilib borish Idoralararo ishchi guruhning asosiy vazifasi etib belgilangan.

Aynan shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi tomonidan identifikatsiyalangan 9.5-ko'rsatkich ishlab chiqilgan bo'lib, har chorakda mazkur barqaror rivojlanish bo'yicha milliy maqsad va vazifalar 2022-yildan boshlab nazoratga olinadigan va mutasaddi tashkilot, vazirlik va idoralar tomonidan birma-bir hisobot topshiriladigan va tegishli chora-tadbirlarni oldindan belgilovchi va zaruratga ko'ra manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi singari xalqaro tashkilotlar ko'magida MBRMni davlat va xususiy sektor tomonidan moliyalashtirish choralarni ishlab chiqish hamda tatbiq etish bo'yicha doimiy faoliyatda bo'lgan tizim ishlab chiqilgan.

2021-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda jami asosiy fondlarga qilingan investitsiyalar hajmi 239 552,6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2020-yildagiga nisbatan 114,0 foizga oshgan. Ammo O'zbekistonda 2021-yil yakunlariga ko'ra, jami asosiy fondlarga investitsiyalar ichida nomoddiy aktivlarga

<sup>10</sup><https://nsdg.stat.uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

<sup>11</sup>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. «2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida». Toshkent sh., 2022-yil 21-fevral, 83-son

investitsiyalarning ulushi atigi 0,22 foizni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2020-yilda 0,18 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda 0,58 foizni tashkil etgan (1-jadval).

### 1-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar va unda nomoddiy aktivlarning o‘rni<sup>12</sup>

№	Asosiy fondlar	2019-yil (mlrd. so‘mda)	2020-yil (mlrd. so‘mda)	2019- yildagiga nisbatan o‘shish sur‘ati (foizda)	2021-yil (mlrd. so‘mda)	2020- yildagiga nisbatan o‘shish sur‘ati (foizda)
<b>Jami asosiy fondlar bo‘yicha:</b>		<b>195927,3</b>	<b>210195,1</b>	<b>107,3</b>	<b>239552,6</b>	<b>114,0</b>
1.	Kompyuter dasturiy ta‘minoti va ma‘lumotlar bazalari	28,7	25,2	87,9	98,6	391,3
2.	Ko‘ngilochar, adabiy va badiiy asarlarning asl nusxalari	3,7	1,6	42,3	0,8	52,3
3.	Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar	5,9	86,5	1 472,8	30,8	35,6
4.	Foydali qazilmalar zaxiralarini razvedka qilish va baholash	763,7	26,7	3,5	96,4	361,5
5.	Boshqa intellektual mulk mahsulotlari	330,1	229,0	69,4	292,3	127,7
<b>Nomoddiy aktivlarga qilingan investitsiyalar bo‘yicha jami:</b>		<b>1 132,1</b>	<b>368,9</b>	<b>32,6</b>	<b>519,0</b>	<b>140,7</b>
<b>Nomoddiy aktivlar bo‘yicha investitsiyalarning jami asosiy kapitalga qilingan investitsiyalardagi ulushi (foizda):</b>		<b>0,58</b>	<b>0,18</b>	<b>x</b>	<b>0,22</b>	<b>x</b>

Mazkur ko‘rsatkichlar O‘zbekistonda asosiy fondlarga investitsiyalar ichida nomoddiy aktivlarga investitsiyalar ulushi juda ham sezilarsiz darajada ekanligidan dalolat beradi. Ammo kompyuter dasturiy ta‘minoti va ma‘lumotlar bazasiga investitsiyalar hajmi 2021-yilda 2020-yildagiga nisbatan 391,3 foizga oshgan. Ko‘ngilochar, adabiy va badiiy asarlarning asl nusxalariga investitsiyalar esa 2019-yilda 3,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda 1,6 mlrd. so‘mni, 2021-yilda esa 0,8 mlrd. so‘mni tashkil etmoqda. E‘tibor berilsa, bu yo‘nalishda investitsiyalar hajmi yildan-yilga tushib ketgan (2019-yilga nisbatan 2020-yilda 42,3 foiz, 2020-yilga nisbatan 2021-yilda 52,3 foiz).

Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga investitsiyalar hajmining o‘shish sur‘atlari esa 2020-yilda 2019-yildagiga nisbatan 1 472,8 foizga oshib ketganligi bu sohada ishlar a‘lo darajada yo‘lga qo‘yilganligidan darak beradi. Ammo o‘shish sur‘ati 2021-yilda 2020-yildagiga nisbatan 35,6 foizni tashkil etgan xolos. Foydali qazilmalar zaxiralarini razvedka qilish va baholash 2021-yilda 2020-yildagiga nisbatan 361,5

<sup>12</sup>O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

foizga oshgan. MHXSga muvofiq foydali qazilmalar zaxiralarini razvedka qilish huquqi (qayta tiklanmaydigan manbalar uchun) nomoddiy aktivlar tarkibiga kiritilmagan bo'lsa-da, 7-sonli «Nomoddiy aktivlar» nomli BHMSga muvofiq bu huquq nomoddiy aktivlar tarkibida turadi.

Yuqorida keltirilgan 1-jadval ma'lumotlariga muvofiq boshqa intellektual mulk mahsulotlariga investitsiyalar o'sish sur'ati 2020-yilda tushgan bo'lsa-da (69,4 foiz), 2021-yilda o'sish ko'rsatkichi 127,7 foizni tashkil etganligi O'zbekistonda intellektual mulk mahsulotlariga investitsion talab oshayotganligidan darak beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Nomoddiy aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish**» deb nomlanib, ushbu bob nomoddiy aktivlarni milliy va xalqaro standartlar asosida taqqoslash va transformatsiyalash jarayonlariga qaratilgan bo'lib, unda nomoddiy aktivlar bo'yicha MHXS talablari asosida transformatsiyalash jarayonini tashkil etish («Hududiy elektr tarmoqlari» AJ misolida) hamda nomoddiy aktivlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobga olish masalalari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

«Bugungi kunda dunyo aholisining aksariyati uchun hayotni energiyadan foydalanmasdan tasavvur qilish qiyin. Elektr energiyasiga ega bo'lmagan dunyo aholisining ulushi 2010-yildagi 1,22 milliarddan 2019-yilda 759 millionga kamaydi. Bu harakatlarga qaramay, 2030-yilda dunyoda 660 milliongacha kishi hali ham internetdan foydalana olmasligi mumkin. Bundan tashqari, COVID-19 pandemiyasi kelajakda elektrlashtirish jarayoniga to'sqinlik qiladi»<sup>13</sup>.

O'zbekiston Respublikasida milliy barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan barcha uchun umumfoydalanish imkoniyatini ta'minlash vazifasi belgilab olingan.

Rossiya Federatsiyasi 14-sonli «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi nizom va Rossiya Federatsiyasi standartlariga muvofiq faqatgina mutlaq huquqdagi nomoddiy aktivlarga tadbirkorlik subyekti uchun nomoddiy aktivlar sifatida hisobda kiritiladi. Mutlaq huquqda bo'lmagan nomoddiy aktivlar esa 04-«Nomoddiy aktivlar» schyotida emas, balki 97-«Kelgusi davr xarajatlari» schyotida yuritiladi. «Misol uchun korxonada odatda sertifikatlar, litsenziyalar, kvotalar, dasturiy ta'minot va boshqa shunga o'xshash aktivlarni aks ettiradi»<sup>14</sup>.

Rossiya standartlariga muvofiq mutlaq huquqdagi aktivlar, masalan, dasturiy ta'minotni olinsa, dasturiy ta'minot agarda korxonaning u bo'yicha yagona huquqqa ega bo'lgan patentga ega xodimi tomonidan yaratilgan bo'lsa, korxonada mazkur aktivni nomoddiy aktiv sifatida o'z hisobida 04-«Nomoddiy aktivlar» sintetik schyotining «dasturiy ta'minot» tahliliy schyotida aks ettiradi. MHXSda esa bunday talablar yo'q. O'zbekiston Respublikasida esa mutlaq foydalanish huquqida bo'lmagan nomoddiy aktivlar BHMS ga muvofiq 016-«Foydalanish huquqi bo'yicha nomoddiy aktivlar» nomli balansdan tashqari schyotda aks ettiriladi. Vaqtincha foydalanish huquqiga asosan olingan aktiv bo'yicha shartnoma muddati tugagach vaqtincha foydalanish huquqi hisobdan chiqarilar edi. MHXS talablariga

<sup>13</sup><https://nsdg.stat.uz/uz/goal/10> O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi veb-saytidan.

<sup>14</sup>Громова, А. В. Трансформация показателей основных средств и нематериальных активов в соответствии с МСФО / А. В. Громова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 25 (263). — С. 189-191. — URL: <https://moluch.ru/archive/263/60837/>

muvofig foydalanish huquqi bo'yicha nomoddiy aktivlar O'zbekistonda 0440-«Foydalanish huquqi bo'yicha nomoddiy aktivlar» nomli balans schyotida yuritiladi.

## 2-jadval

### 2021-yil yakunlariga ko'ra nomoddiy aktivlarni O'zbekiston Respublikasi hamda Rossiya Federatsiyada MHXS talablari asosida transformatsiyalash jarayoni va ular o'rtasidagi o'zaro farqli jihatlar<sup>15</sup>

№	O'zbekiston Respublikasida nomoddiy aktivlar transformatsiyasi					Rossiya Federatsiyasida nomoddiy aktivlar transformatsiyasi <sup>16</sup>				
	MHTH/ FVZTH	Schyotning nomi	Debet/ Kredit	Summa, ming sh.b.	Buxgalteriya o'tkazmasi mazmuni	MHTH/ FVZTH	Schyotni ng nomi	Debet/ Kredit	Summa, ming sh.b.	Buxgalteriya o'tkazmasi mazmuni
<b>Litsenziya va dasturiy ta'minotni, davr xarajatlari hamda kelgusi davr xarajatlaridan nomoddiy aktivlarga nisbatan tasniflash</b>										
1	MHTH*	0440- «Foydalanish huquqi bo'yicha nomoddiy aktivlar»	Debet	150	<b>Bir vaqtning o'zida hisobdan chiqarilganda:</b> davr xarajatlari sifatida e'tirof etilgan litsenziya va dasturiy ta'minot nomoddiy aktivlarga qayta tasniflandu	MHTH	Nomoddiy aktivlar	Debet	150	Litsenziya va dasturiy ta'minot kelgusi davr xarajatlaridan nomoddiy aktivlarga qayta tasniflandu
	FVZTH**	9410-«Sotish xarajatlari» yoki 9420- «Ma'muriy xarajatlar»	Kredit	(150)						
MHTH	0440- «Foydalanish huquqi bo'yicha nomoddiy aktivlar»	Debet	150	<b>Kelgusi davr (muddati kechiktirilgan) xarajatlari orqali hisobdan chiqarilganda:</b>	MHTH	Kelgusi davr xarajatlari	Kredit	(150)		
MHTH	3190-«Boshqa kelgusi davr xarajatlari» yoki 3290-«Boshqa muddati kechiktirilgan xarajatlar»	Kredit	(150)	kelgusi davr xarajatlari sifatida e'tirof etilgan litsenziya va dasturiy ta'minot nomoddiy aktivlarga qayta tasniflandu						

\* MHTH – «Moliyaviy holat to'g'risida»gi hisobotda;

\*\* FVZTH «Foyda va zararlar to'g'risida»gi hisobotda

